SUN`IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDA O`ZBEK TILINING INTEGRATSIYASI

Tursunova Maftunaxon Xoshimjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti.
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti,
Filologiya va tillarni o`qitish (ingiliz tili) 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24241006

Annotatsiya. Bugungi kunda sun`iy intellekt hayotimizning ko`p sohalariga kirib bormoqda. Shu sababli o`zbek tilini ham sun`iy intellekt tizimilariga integratsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o`zbek tilini kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi va uning o`zbek tiliga ta`siri haqida so`z boradi. Hozirgi kunda ingiliz yoki boshqa tillarda ishlaydigan neyrotarmoqlar juda ko`p, ammo o`zbek tilida ularning ishlash sifati va imkoniyatlari hali yetarli darajada emas. Muallif shu muammoning sabablari va uni bartaraf etish yo`llari bo`yicha o`zining shaxsiy kuzatishlari va fikrlarini bayon etgan.

**Kalit so`zlar:** *Sun`iy intellekt, o`zbek tili, NLP (tabiiy tilni qayta ishlash), mashinaviy tarjima, internet tarmoqlari, talaba qarashlari.*

Hozirgi vaqtda sun`iy intellektdan deyarlig barcha inson foydalanadi desak xato bo`lmaydi va bu narsa insoniyat uchun yaxshi qulayliklarni keltirmoqda ammo shu bilan birgalikda ba`zi muammolarni ham o`zi bilan birga olib kelmoqda. Ochig`i, so`nggi paytlarda internet tarmog`ida ChatGPT yoki boshqa turdagi sun`iy intellekt dasturlaridan barcha yoshlar va kattalar birdek faol foydalanishmoqda. Lekin ko`pincha o`zbek tilida yozganda ba`zi xatolar bo`lishini yoki tayyor matnlar sifati pastligini sezaman. Shu narsa menda ushbu mavzuda o`ylab ko`rish va o`zimcha ba`zi tahlilarni qilishga turtki bo`ldi.

Bugungi kunda sun`iy intellektni o`zbek tiliga moslashtirish, sun`iy intellektdan o`zbek tilida foydalanganda muamolarga duch kelmasligimiz uchun ancha ishlar qilinmoqda. Masalan, ayrim dasturlar ya`ni sun`iy intellekt asosida bo`lgan dasturlar o`zbek tilini tushunib, matinlarni to`g`ri tarjima qila olmayabdi yoki o`zbek tilidagi ba`zi so`zlarni tushunmasdan foydalanuvchiga boshqacha tushuncha berib qoyayabdi. Lekin bular hali boshlanishi xolos.

Shuning uchun ham sohada mutahassislar va dasturchilar tomonidan bu turdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko`plab qadamlar tashlanmoqda. Xususan, o`zbek tilidagi so`zlarning ma`no qatlamlari va turli iboralarni chuqurroq o`rganuvchi maxsus neyron tarmoqlar shuningdek mahalliy sun`iy intellekt loyihalari ustida maxsus ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 21-oktabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida turli mintaqalar va sohalarda sun`iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan videokonferensiya bo`lib o`tdi. O`zbek tili davlat tili maqomini olganining 36 yilligi munosabati bilan prezident xalqni tabrikladi va o`zbek tilini to`liq tushunmasdan turib samarali sun`iy intellekt tizimlarini yaratish mumkin emasligini ta`kidladi. “Ma`lum bo`lsinki, sun`iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular avvalo o`zbek tilini mukammal tushunishlari kerak”, dedi prezident.

Biroq, o`zbek tilidagi materiallarning aksatiyati- jumladan, adabiyotlar, ma`lumotlar, maqolalar, hisobotlar va ilmiy ishlar – hali raqamlashtirilmaganligi ta`kidlandi. Hatto elektron shaklda mavjud bo`lganlari ham turli manbalarda tarqalgan va to`g`ri tashkil etilmagan. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasiga barcha vazirlik va idoralardan ma`lumotlarni raqamlashtirish jadvalini tasdiqlash topshirildi. Raqamli texnologiyalar vazirligiga esa, o`z navbatida, sun`iy intellekt tizimlari mamlakat milliy madaniyati va qadriyatlarini o`zida mujassam etishi uchun o`zbek tili korpusini yaratish vazifasi yuklatildi.

Tabiiy tilni qayta ishlatish (NLP- Natural Language Processing) yo`nalishiga to`xtalib o`tish joiz. O`zbek tilining agglyutinativ (tirkama) til ekanligi, so`z yasalishining boyligi va qo`shimchalarning ko`pligi uning kompyuter tomonidan tahlil qilinishini biroz murakkablashtiradi. Shunga qaramay,

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

so`nggi yilarda o`zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahlil qilish, imlo xatolarini to`g`irlash va ma`noni anglash borasida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Xususan, yaratilinayotgan milliy korpuslar sun`iy intellekt modellarini o`qitish uchun asosiy baza vazifasini o`tamoqda. Shuningdek, Google Translate yoki Yandex kabi xalqaro platformalarda o`zbek tilidagi tarjima sifati ancha yaxshilangani ko`zga tashlanmoqda.

O`z navbatida, bu jarayonlarning huquqiy va tashkiliy asoslari ham davlatimiz e`tiboridan chetda qolmayapti. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlarida sun`iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, davlat tilidagi elektron ma`lumotlar bazalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida tashkil etilgan markazlar va mahalliy va startaplar tomonidan ona tilimizni raqamli muhitga moslashtirish yo`lida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Biroq, barcha ijobiy o`zgarishlar bilan bir qatorda, bu yo`lda ba`zi bir muammolarga ham duch kelayotganini tan olishimiz kerak. Birinchidan, ma`lumotlar yetishmasligi muammosi. Chunki ingiliz yoki rus tillar bilan solishtirganda, o`zbek tilidagi sifatli, raqamlashtirilgan va etketkalangan matnli va hamda ovozli bazalar hajmi hali ham yetarli darajada emas. Ikkinchidan esa, o`zbek tilini raqamli texnologiyalarda rivojlanishiga qiyinchilik qilayotgan narsa bu sheva so`zlar ham hissoblanadi desak ham mubolag`a bo`lmaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o`zbek tilining kelajagi va uning raqamli olamda o`z o`rnini topib, rivojlana olishi birinchi navbatda o`zimizga bog`liq. Agar biz internetga ko`proq o`zbek tilida sifatli kontentlarni kiritsak, turli xil maqolalar yoki kitoblarni sof o`zbek tilida joylashtirsak, sun`iy intelekt ham tilimizni tezroq va yaxshiroq o`rganadi. Bu esa o`z navbatida kelgusida har birimizga kundalik o`qish, ilmiy izlanishlar va kundalik hayotda zamonaviy texnologiyalardan o`z ona tilimizda to`la qonli foydalanish imkoniyatini beradi. Bu ishda boshqa soha egalarigagina tayanib qolmay biz talabalar ham o`z hissamizni qo`shishimiz kerak deb o`ylayman. Tarjimalar qilish, raqamli resurslarni boyitish, ilmiy maqolalar va bloglar yuritish orqali ona tilimizning inernetdagi mavqeini yuksaltirishbugungi kundagi yosh avlodlarning eng muhim vazifalaridan biridir. Unutmayliki, tilimizning raqamli tehnogiyalarda qanday mavqega ega bo`lishi aynan bizning faollogimizga bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining “ Davlat tili haqida”gi qonuni. – Toshkent: O`zbekiston, 2020.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli texnologiyalar va sun`iy intellektni rivojlantirishga oid qarorlari.
3. Karimov S. O`zbek tilining internet tarmog`idagi o`rni va uni rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Mumtoz so`z, 2021.
4. Yo`ldoshev B. Raqamli lingivistika va sun`iy intellekt texnologiyalarida o`zbek tili. // “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2023. –N3.
5. Ahmedov N., Raximov T. Axborot texnologiyalari va zamonaviy tilshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. Normatov A. Internet va yoshlar: ona tilimiz kontentini boyitish yo`llari.// “Marifat” gazetasi, 2024-yil 14-fevral.
7. Internetdagi ochiq manbalar va mavzuga oid maqollar.
8. Shaxsiy kuzatishlar va talabalik tajribasi asosidangi tahlillar.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.